

# ANIQ VA TABIIY FANLAR

## SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI

**Bahodir ISROILOV,**  
*ISFT professori, iqtisodiyot fanlari doktori*  
**Boburshoh IBRAGIMOV,**  
*ISFT dotsenti, PhD*

### Annotation

*the optimal organization of tax administration is a factor in the development of entrepreneurship and the sustainable formation of budget revenues. The full implementation of a balanced tax policy depends on the correct and efficient organization of tax administration.*

### Keywords

*economic reform, state budget, budget revenue, tax, fiscal policy, tax administration, tax control.*

### Аннотация

оптимальная организация налогового администрирования является фактором развития предпринимательства и устойчивому формирования доходов бюджета. Полноценная реализация взвешенной налоговой политики зависит от правильной и эффективной организации налогового администрирования.

### Ключевые слова

*экономическая реформа, государственный бюджет, доходы бюджета, налог, фискальная политика, налоговое администрирование, налоговый контроль.*

## Annotatsiya

*soliq ma'muriyatçılığını oqilona tashkil etish tadbirkorlikni rivojlantirish hamda budget daromadlarını barqaror shakllantirish uchun xizmat qiladigan omillardan hisoblanadi. Chunki oqilona soliq siyosatining ijrosi to'liq ta'minlanishi, soliq ma'muriyatçılığını to'g'ri va samarali tashkil etishga bog'liqdir.*

## Kalit so'zlar

*iqtisodiy islohot, davlat budgeti, budget daromadi, soliq, fiskal siyosat, soliq ma'muriyatçılıgi, soliq nazorati.*

## Kirish

Jahon tajribasidan tadbirkorlik subyektlarining erkin faoliyatini ta'minlash, ular faoliyatiga davlat organlari aralashuvini tubdan qisqartirish, huquqbazarliklarning barvaqt oldini olish, profilaktik tadbirlar samaradorligini oshirish, davlat budget-soliq siyosatining muhim va ustuvor vazifasi hisoblanishi ma'lum. Shuningdek, davlat soliq siyosati va tizi-mining oqilona shakllanishi mamlakatda tadbirkorlik faoliyati rivojlanishi hisobiga aholi bandligini ta'minlash hamda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun ham qulay shart-sharoitlar yaratishni ta'minlaydi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarda globallashuv sharoiti-da "daromadi o'rta chadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirishi hamda "davlat budgeti taqchilligini qisqartirish va 2023-yildan yalpi ichki mahsulotga nisbatan uning 3 foizdan oshib ketmasligini ta'minlash" mamlakatning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasidagi maqsadlardan biridir [1].

Muqaddam amalga oshirilgan tadqiqotlarimiz natijalari to'g'risida chop etilgan ishlarda mamlakatimiz iqtisodiyotini isloh qilish samarasi va uni yanada oshirish to'g'risidagi taklif hamda tavsiyalarimizni va munosabatlarimizni bayon etganmiz [2.7].

## Tadqiqot metodologiyasi

Mavzuga oid tadqiqotlarni olib borish va natijalarni asoslash maqsadida mantiqiy fikrlesh, analiz, sintez, taqqoslash va guruhash va kabi usullardan foydalilanigan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Soliq nazorati va ma'muriyatçılıgi masalalari bo'yicha P.A. Aletkin, S.V. Barulin, V.A. Brizgalin, V.G. Getman, V.O. Vrublyovskaya, Y.Y. Grachyova, A.V. Demin, D.B. Dmitriyeva, Y.A. Yermakova, Y.Y. Jidkova, A.S. Jurayev, M.V. Milnik, M.V. Romanovskiy, V.V. Stepanenko, T.S. Malikov, N.H. Haydarov, Sh.Toshmatov, Q. Yaxyoyev, E.Gadoyev, F.Mirzayev, A.Malikov kabi olimlar tadqiqotlari mavjud bo'lib, ular ushbu masalada o'z qarashlarini bildirgan.

Masalan, A.V. Demin "soliq ma'muriyatichiligining ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan majburiy nazorat tizimidan mijozlarga yo'naltirilgan xizmat tamoyiliga asoslangan "o'zaro hamkorlik" modeliga o'tish talabi, nizolarni sudsiga hal qilish, o'zaro ishonch va o'zaro manfaatli boshqarishga xizmat qiladi", degan fikrni bildirgan [8].

Rossiya Federatsiyasi soliq ma'muriyatichiligi tizimi tahlili asosida T.Y. Totikova jaryonlar sodir bo'lgandan so'ng huquqbazarliklarni aniqlash va soliq sanksiyalarini qo'llashga qaratilgan nazorat shaklidagi repressiv xususiyatga ega", degan fikrni bildirgan [9].

Buyuk Britaniyada soliq ma'muriyatichiligi adolatlilik, o'zaro hamkorlik va tushunarilik tamoyillari bilan birga soliq to'lovchilarga xizmat ko'stish sifati tamoyiliga ham asoslanadi [10]. G'aznachilik organi Buyuk Britaniyada soliq munosabatlarini nazorat qiluvchi va tartibga soluvchi hamda mamlakatning umumiy iqtisodiy strategiyasini ishlab chiquvchi organ hisoblanadi.

Masalan, Fransiya, AQSh, Shvetsiyada soliq to'lovchi soliq organlaridan rejalaشتirilgan bitim bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan soliq oqibatlari bo'yicha dastlabki xulosa so'rash huquqiga ega. Shvetsiyada soliq oqibatlari to'g'risidagi dastlabki xulosa berish, maxsus soliq huquqi komissiyasi tomonidan beriladi.

Soliqlar mamlakat budgeti daromad qismini shakllantirishga xizmat qilishi bilan birga davlatning iqtisodiyotni tartibga solish mexanizmi ham hisoblanadi. Davlat soliq mexanizmi yordamida tadbirkorlik subyektlarining bir qismini o'z daromadiga aylantiradi.


Soliq to'lovchilarga imtiyoz va preferensiyalar berishga oid soliq yukini optimallash-tirishga qaratilgan soliq siyosati orqali iqtisodiyot rivojlanishi ta'minlanadi. Tadbirkorlik subyektlarining erkin faoliyatini ta'minlash, ular faoliyatiga davlat organlari aralashuvini tubdan qisqartirish, huquqbazarliklarning barvaqt oldini olish, profilaktik tadbirlar samaradorligini oshirish iqtisodiyotni rivojlantirish sohasidagi davlat siyosatining muhim ustuvor vazifasi hisoblanadi.

Yevropa ittifoqi mamlakatlari ham budget daromadlari barqarorligini ta'minlash va soliqlarni to'lashdan bo'yin tov lash holatlarining oldini olish maqsadida soliq qonunchiligini takomillashtirish choralarini qo'llamoqda. Tadqiqotlar natijasidagi hisob-kitoblar Yevropa ittifoqi budgetiga har yili soliq to'lovchilar tomonidan turli sxema va choralarni qo'llash evaziga, 1 trln yevro miqdorida soliq tushumlaridan mahrum bo'lganligini ko'rsatgan [11].

O'zbekiston soliq siyosatining o'ziga xos xususiyatidan biri, mustaqillikning dastlabki yillarda soliqning fiskal funksiyasiga asosiyligi e'tiborni qaratib, budget daromadini shakllantirish tartiblari ishlab chiqilgan davrdan boshlab soliq imtiyozlari orqali iqtisodiy faoliyoti oshirishga erishilgani hisoblanadi. Shu maqsadda mamlakatimizda iqtisodiy o'sishning barqarorligi ta'minlangandan so'ng, soliq stavkalari kamayib borish tendensiyasiga ega bo'ldi. Soliq ma'muriyatichiligi tizimida islohotlar ma'muriy bosim tamoyilidan voz kechish va soliq to'lovchilar bilan o'zaro hamkorlikni kuchaytirish tamoyiliga qaratildi.

Mamlakatimizda soliq to'lovchilarni qo'llab-quvvatlash va soliq yukini optimallash-


tirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida yalpi ichki mahsulot va soliq to'lovchilar sonining doimiy ravishda o'sishi kuzatilmogda. Natijada budgetga tushadigan soliq tushumlari miqdori ham ijobjiy o'zgarmoqda (1-rasm).



**1-rasm.** 2023-yil 9-oyida budgetga tushumlarning soliq turlari kesimi bo'yicha tushumlar ulushi  
(soliq.uz sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi)

Ammo iqtisodiyotdagagi ijobjiy o'zgarishlar bilan birga salbiy holatlarni ham kuzatishimiz mumkin. Mamlakatimizda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash bo'yicha ustuvor vazifalar muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan "O'zbekistonda yashirin iqtisodiyotdan davlat budgetiga 30 trln so'm, yalpi ichki mahsulotga 135 trln so'm zarar yetkazilgan. Deyarli 11 mingta korxona (41 foiz) hisobotlarida faqat 1 kishini ishchi sifatida ko'rsatgan. Yashirin iqtisodiyot to'g'ri ishlayotgan tadbirdorlarga katta to'siq" ekanligi ta'kidlandi [12].

Soliq ma'muriyatichiligidagi o'zaro hamkorlik tamoyili afzalliklari rivojlangan davlatlar tajribasidan ma'lum. Lekin fiskal maqsadlar davlat organlarini ko'pchilik hollarda davlat manfaati ustunligiga e'tibor qaratishga undaydi. Buning salbiy oqibatlari soliq bazasini yashirish va yashirin iqtisodiyot darajasi oshishida namoyon bo'ladi. Natijada soliq to'lovchilar uzoq muddat faoliyat yuritishdan manfaatdor bo'lmaydi. Qisqa muddat faoliyat yuritish va boqimonda qarzlarni korxonani bankrot qilish evaziga hisobdan chiqarish holatlari ko'payadi. Bu salbiy oqibatlari natijasida soliq to'lovchilarning yashovchanlik darajasi past bo'ladi (2-rasm).



**2-rasm.** Soliq to'lovchi yuridik shaxslarning yillar kesimi bo'yicha yashovchanlik darajasi 2023-yil 1-yanvar holatiga  
(*soliq.uz sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi*)

Davlat budgetining barqarorligi soliqlarning to'g'ri hisoblab chiqilishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishi bilan o'zaro bog'liqdir. Soliq qonunchiligi ijrosini to'liq ta'minlash soliq to'lovchilar faoliyatini nazorat qilish usullarini belgilashni taqozo etadi.

Soliq nazorati – soliq to'lovchilar, soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog'liq obyektlarini hisobga olish hamda soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga riya etilishini davlat tomonidan nazorat qilish tizimidir. Soliq nazorati barcha davlatlarga xos nazorat bo'lib, uni o'tkazadigan organlar, nazorat shakllari va o'tkazish tartiblari har bir davlatning qonunchiligi bilan belgilab qo'yiladi. Mamlakatimizda soliq qonunchiligiga riya etilishini nazorat qilish soliq xizmati organlari tomonidan "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, Soliq Kodeksi va boshqa me'yoriy hamda qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasida vakolatli organlar tomonidan amalga oshiriladigan soliq nazorati tadbirlari shakllari quyidagilardan iborat:

- soliq to'lovchilarni hisobga olish;
- soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog'liq obyektlarni hisobga olish;
- budgetga va davlat maqsadli jamg'armalariga tushayotgan tushumlarni hisobga olish;
- kameral nazorat;
- naqd pul tushumlari kelib tushishining xronometraji;
- soliq tekshiruvlari;
- fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarini qo'llash;
- aksiz to'lanadigan ayrim turdag'i tovarlarni markalash, shuningdek, ayrim korxonalar-da moliya inspektori lavozimini joriy etish;
- davlat daromadiga qaratilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushadigan pul mab-

lag'lari davlat daromadiga o'z vaqtida va to'liq tushishini nazorat qilish;

- bojxona chegarasidan olib o'tilishi munosabati bilan to'lanishi lozim bo'lgan soliqlar va yig'imlarni undirish bo'yicha soliq nazorati.

Soliq xizmati organlari vakolatiga tegishli soliqlar bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish vazifalarini bajarish yuklatilgan. Shu sababli hisoblash hamda undirish vakolati boshqa organlarga yuklatilgan soliq va yig'imlar bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishga doir boshqa qonun hujjatlari me'yorlari qo'llaniladi. Masalan, import qilingan mahsulotlar uchun bojxona organlari tomonidan hisoblanadigan va undiriladigan qo'shilgan qiymat, aksiz soliqlari, sudlar va notarial idoralar tomonidan undiriladigan davlat bojlarini to'g'ri hisoblash va undirish bilan bog'liq munosabatlar nazorati boshqa qonun hujjatlarda belgilangan me'yorlar asosida amalga oshiriladi.

Budgetga va davlat maqsadli jamg'armalariga tushayotgan tushumlarni hisobga olishga oid nazorat ishlari, budget va maqsadli jamg'armalarga soliqlar hamda boshqa yig'imlar tushumini har bir to'lovchi va soliq turi bo'yicha nazorat qilish hamda ular yuzasidan qarzdorliklar hisobini yuritish maqsadida amalga oshiriladi.

Belgilangan soliq va yig'imlar tushumlari respublika yoki mahalliy budget daromadiga kirim qilinadi. Shuning uchun budgetga to'langan soliqlar hisobi ham O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi (Iqtisodiyot va moliya vazirligi) tomonidan tasdiqlanadigan budget daromadlari klassifikatsiyasiga muvofiq belgilangan bo'lim va moddalarga kirim qilinishini ta'minlanishi zarur.

Davlat maqsadli jamg'armalariga to'lanadigan to'lovlar esa qaysi jamg'armaga to'lanishiga ko'ra alohida-alohida hisobga olinadi va har bir jamg'arma bo'yicha tushumlar miqdori hamda ularni belgilangan muddatlarda to'lash, qarzdorliklarni undirish chora-tadbirlari nazorat qilib boriladi.

Budgetga soliq to'lovchilar tomonidan to'langan soliqlar va yig'imlarni hisobga olishga oid nazorat ishlari soliq xizmati organi tomonidan har bir soliq va yig'im turi bo'yicha alohida hisob kartochkalarini yuritish asosida amalga oshiriladi.

Soliq nazoratining bir turi kameral tekshiruv hisoblanib, ushu tekshiruv soliq to'lovchi ish faoliyatiga aralashmasdan soliq xizmati organlari va boshqa idoralarda mavjud moliyaviy, soliq va statistik hisobotlar hamda ma'lumotlar asosida budgetga soliq va yig'imlarni to'g'ri hisoblanishini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Rossiya Federatsiyasi Soliq Kodeksida belgilangan soliq nazorati turlaridan biri kameral tekshiruv hisoblanib, unga "Kameral tekshiruv – soliq to'lovchi tomonidan topshirilgan soliq deklaratsiyalari va hujjatlar hamda soliq organlarida mavjud hujjatlar asosida soliq va yig'imlar to'g'risidagi qonunchilik ijrosini tekshirishdir", deb ta'rif berilgan [7, 88-modda].

O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Soliq Kodeksiga muvofiq "Kameral soliq tekshiruvi – soliq to'lovchi (soliq agenti) tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotini, moli-

yaviy hisobotni, shuningdek, soliq to'lovchining faoliyati to'g'risida soliq organida mavjud bo'lgan boshqa hujjatlar hamda ma'lumotlarni tahlil qilish asosida soliq organi tomonidan soliq qonunchiligi ijrosini nazorat qilishdir" [SK 138-modda].

Kameral soliq tekshiruvini o'tkazish tartibi, qonun osti hujjatlari bilan belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Soliq organlari tomonidan kameral soliq tekshiruvini o'tkazishda quyidagi masalalar o'rganilishi mumkin:

- soliq hisobotlarining to'g'ri va qonunchilik talablari asosida to'ldirilganligi;
- soliq bazasi, summasi, imtiyozlar va stavkalarning to'g'ri hisoblanishi hamda qo'llanishi;
- hisoblangan soliq va yig'imlarning budgetga to'langanligi;
- alohida hisob raqam asosida realizatsiya qilinadigan tovarlar uchun naqd pullar tushumi to'liq inkassatsiya qilinganligi.

Kameral soliq tekshiruvi natijasi bo'yicha belgilangan tartibda dalolatnomha yoki ma'lumotnomha tuziladi.

Kameral soliq tekshiruvi natijasida aniqlangan holatlar bo'yicha soliq to'lovchi o'z hisobotlariga tegishli o'zgartirishlar kiritmagan taqdirda, soliq to'lovchi faoliyati bo'yicha soliq auditii tayinlanishi mumkin.

Tadqiqotlarimiz natijalariga asoslanib, soliq ma'muriyatichiligi samaradorligini oshirish va soliq undirish xarajatlarini kamaytirish maqsadida:

- soliq nazorati tizimini to'liq raqamlashtirish;
- soliq hisobotlarini soliq organlari ma'lumotlari asosida shakllantirish;
- soliq hisobotlarini shakllantirishda statistik hisobotlar ma'lumotlarini inobatga olishni qonunchilik me'yorlariga kiritish taklif etiladi.

Ushbu tartiblarning amaliyotga kiritilishi :

- soliq nazoratiadolatlilagini ta'minlash;
- soliq qonunchiligi ijrosini amalga oshirish sifatini oshirish;
- budgetga qo'shimcha hisoblangan daromadlarni to'liq undirish;
- soliq organlari va soliq to'lovchilar o'zaro hamkorligi darajasini oshirish uchun xizmat qiladi, deb hisoblaymiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmoni. lex.uz saytidan.
2. Ibragimov B.B. Soliq ma'muriyatichiligi: muammo va yechimlar. T.: Noshirlik yog'dusi, 2022. – 226 b.
3. Исройлов Б.И., Ибрагимов Б.Б., Ахмедов З. Влияния теневой экономики на эко-

- номическую безопасность страны / Теневая экономика, 2021. – Том 5. – № 4. DOI: 10.18334/тек.5.4.113690.
4. Isroilov B.I., Ibragimov B.B. Iqtisodiy xavfsizlik darajasini baholovchi ko'rsatkichlar ni aniqlash masalalari // O'zbekiston milliy axborot agentligi – O'zA Ilm-fan bo'limi (Elektron jurnal). 2021, oktabr.
  5. Ibragimov B.B. Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida soliq majburiyatini belgilashni takomillashtirish // Servis, 2021. – №3. – 151-154 b.
  6. Ibragimov B.B. Soliqlar hisobining soliq ma'murchilagini tashkil etishdagi roli //Servis, 2022. – №2. – 170-174 b.
  7. Ibragimov B.B. Soliq ma'muriyatchiligi va uni davlat tomonidan tartibga solishning ij-timoiy-iqtisodiy ahamiyati // O'zbekiston qishloq va suv xo'jaligi jurnali, 2022. Maxsus son. – 93-94 b.
  8. Демин А.В. Повышение налоговой культуры – важнейший компонент перехода к «партнёрской» модели налогового администрирования / А. В. Демин // Материалы ВИИИ Международной научно-практической конференции «Актуальные направления научных исследований: от теории к практике». Том 2. – Чебоксары: СНС «Интерактив плюс», 2016. – № 2 (8). – С.271–275.
  9. Тотикова Т.Е. Модернизация систем налогового администрирования в зарубежных странах: анализ основных тенденций // Изв. Сарат. ун-та. Нов. сер. Сер. Экономика. Управление. Право. 2016. Т. 16, вып. 4. DOI: 10.18500/1994-2540-2016-16-4-445-448.
  10. Линовицкий Ю.А. Практика налогового контроля в зарубежных странах // Налоги и налогообложение. 2009. № 11. С. 40 –44.
  11. OECD (2013) Tax Administration 2013. Comparative Information on OECD and Other Advanced and Emerging Economies. OECD Publishing. URL: [http://www.oecd-ilibrary.org/taxation/tax-administration-2013\\_9789264200814-en](http://www.oecd-ilibrary.org/taxation/tax-administration-2013_9789264200814-en).
  12. Mirziyoyev Sh.M. Makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash bo'yicha ustuvor vazifalar muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilishdagi ma'ruzasi / Xalq so'zi. 2024-yil 17-yanvar.